ZAMONAVIY FANDA ISLOM TARIXI MUAMMOLARI TADQIQI

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМ ИСТОРИИ ИСЛАМА В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ

THE RESEARCH OF THE PROBLEMS IN THE HISTORY OF ISLAM IN MODERN TIMES

ZOHIDOV Kobiljon,
YANGI ASR UNIVERSITY
Doctor of Historical Sciences (DSc), Associate Professor
Vice-Rector for Research
qobilzohidov@gmail.com
Beruni Street, Building 36, Tashkent, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2025/2/2

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola Rossiya, Sovet Ittifoqi, arab va o‘zbek sharqshunoslarining islom davlatchiligining ilk shakllanishi va taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini kompleks ravishda tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida rus va sovet olimlari, jumladan, I.Yu. Krachkovskiy, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy va I.P. Petrushevskiylarning islom davlatchiligining vujudga kelish sabablari, uning siyosiy tuzilishi, boshqaruv mexanizmlari va xususiyatlari borasidagi qarashlari chuqur tahlil etilgan. Ularning ilmiy maqola va asarlari, nazariy yondashuvlari va islom sivilizatsiyasining siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlariga oid fikrlari solishtirma ravishda o‘rganilgan.*

Shuningdek, maqolada arab mualliflari, xususan, Muhammad Xudariy, Hasan Ibrohim Hasan, Abdulmuni’m Mojid, Mahmud Shokir, Akrom Ziyo Umariy va Muhammad Sallobiylarning asarlarida islom tarixining turli bosqichlari, siyosiy va ijtimoiy tuzilmalari, boshqaruv an’analari va tarixiy manbalarga bo‘lgan munosabati batafsil ko‘rib chiqilgan. Ushbu olimlarning ilmiy maqola va asarlari islom davlatchiligi tarixi bo‘yicha muhim manba sifatida baholangan.

Maqolaning muhim qismini o‘zbek sharqshunoslarining ilmiy maqola va asarlari tashkil etadi. Ushbu qismda Usmonov Mutallib Ahmadovichning Qur’oni karim tarjimasi va tafsiri, U.Uvatovning Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy va Abu Mansur Moturidiylarning merosini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari, Sh.S. Kamoliddinovning klassik arab manbalari (“Kitab al-ansab”, “Futuh al-buldan”, “Surat al-ard”) tarjimasi va tahlili tadqiq qilingan. A. Hasanovning qadimgi Arabiston, Mamluklar davri va islomning ilk davri tarixiga oid tadqiqotlari, shuningdek, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Hadis va hayot” silsilasi va “Islom tarixi” asarlarining ahamiyati yoritilgan.

Maqolada islom davlatchiligi tarixini diniy va dunyoviy nuqtayi nazardan o‘rganish, manbashunoslik, tarixshunoslik va diniy tafsirlarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan. Zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqib yaratilgan ommabop asarlarning ahamiyati ham ta’kidlangan. Tadqiqot natijalari islom sivilizatsiyasi, siyosiy tarix va tarixshunoslik sohalaridagi kelgusi tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *Islom davlatchiligi, sharqshunoslik, Rossiya sharqshunosligi, sovet sharqshunosligi, arab tarixnavisligi, o‘zbek sharqshunosligi, tarixshunoslik, manbashunoslik, islom sivilizatsiyasi, islom tarixi.*

Аннотация. *Данная научная статья посвящена комплексному анализу вклада российских, советских, арабских и узбекских востоковедов в изучение истории раннего формирования и развития исламской государственности. В процессе исследования был проведен углубленный анализ взглядов российских и советских ученых, в том числе И. Ю. Крачковского, В. В. Бартольда, А. Ю. Якубовского и И. П. Петрушевского, на причины возникновения исламской государственности, ее политическое устройство, механизмы управления и особенности. Было проведено сравнительное исследование их научного наследия, теоретических подходов и взглядов на политические, социальные и культурные аспекты исламской цивилизации. В статье также подробно рассматриваются различные этапы истории ислама, политические и социальные структуры, традиции управления и отношение к историческим источникам в работах арабских авторов, в частности, Мухаммада Худари, Хасана Ибрагима Хасана, Абдулмунима Маджида, Махмуда Шакира, Акрама Зиё Умари и Мухаммада Саллоби. Научное наследие этих ученых оценивается как важный источник по истории исламской государственности. Важную часть статьи составляет научное наследие узбекских востоковедов. В этой части проанализированы перевод и толкование Корана, выполненные Усмановым Муталлибом Ахмадовичем, исследования У.Уватова, посвященные изучению наследия Имама Бухари, Имама Термизи, Махмуда Замахшари и Абу Мансура Мотуриди, а также перевод и анализ классических арабских источников («Китаб ал-ансаб», «Футух ал-булдан», «Сурат ал-ард»), выполненные Ш. С. Камолиддиновым. Освещается значение исследований А. Хасанова по истории Древней Аравии, эпохе Мамлюков и раннему периоду ислама, а также значение серии книг «Хадисы и жизнь» и труда «История ислама» Шейха Мухаммада Садыка Мухаммада Юсуфа. В статье уделяется внимание изучению истории исламской государственности с религиозной и светской точек зрения, взаимосвязи источниковедения, историографии и религиозных толкований. Подчеркивается также значение популярных работ, созданных исходя из современных потребностей. Результаты исследования могут стать важной основой для будущих исследований в областях исламской цивилизации, политической истории и историографии.*

Ключевые слова: *исламская государственность, востоковедение, российское востоковедение, советское востоковедение, арабская историография, узбекское*

востоковедение, историография, источниковедение, исламская цивилизация, история ислама.

Abstract. *This scientific article is dedicated to a comprehensive analysis of the contributions made by Russian, Soviet, Arab, and Uzbek Orientalists to the initial formation and development of Islamic statehood. The research process involved an in-depth analysis of the views of Russian and Soviet scholars, including I.Yu. Krachkovsky, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovsky, and I.P. Petrushevsky, on the causes of the emergence of Islamic statehood, its political structure, governance mechanisms, and characteristics. Their scholarly articles and works, theoretical approaches, and thoughts on the political, social, and cultural aspects of Islamic civilization have been studied comparatively.*

The article also examines in detail the various stages of Islamic history, political and social structures, traditions of governance, and attitudes towards historical sources in the books of Arab authors, particularly Muhammad Khudari, Hasan Ibrahim Hasan, Abdulmunim Majid, Mahmud Shakir, Akram Ziya Umari, and Muhammad Sallobi. The scientific legacy of these scholars is assessed as an important source for the history of Islamic statehood.

A significant part of the article is devoted to the scientific legacy of Uzbek orientalists. This section analyzes the translation and interpretation of the Quran by Usmanov Mutallib Akhmadovich, the research of U. Uvatov dedicated to the study of the legacy of Imam Bukhari, Imam Termizi, Mahmud Zamakhshari, and Abu Mansur Moturidi, as well as the translation and analysis of classical Arabic sources ("Kitab al-Ansab," "Futuh al-Buldan," "Surat al-Ard") by Sh.S. Kamoliddinov. The significance of A. Hasanov's research on the history of ancient Arabia, the Mamluk era, and the early period of Islam is highlighted, as well as the significance of the series of books "Hadith and Life" and the work "History of Islam" by Sheikh Muhammad Sadik Muhammad Yusuf.

The article focuses on the study of the history of Islamic statehood from religious and secular points of view, and the interrelationship of source studies, historiography, and religious interpretations. The importance of popular works written based on modern needs is also emphasized. The results of the research can serve as an important basis for future research in the fields of Islamic civilization, political history, and historiography.

Keywords: *Islamic statehood, oriental studies, Russian oriental studies, Soviet oriental studies, Arab historiography, Uzbek oriental studies, historiography, source studies, Islamic civilization, history of Islam.*

KIRISH

Ilk islom davlatchiligining shakllanish va rivojlanish tarixi ancha yillardan beri mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiq qilinmoqda. Xususan, bu sohada Rossiyalik sharqshunos va islomshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Maqolada arab-musulmon davlatchiligini o‘rgangan ayrim tadqiqotchilarning faoliyati, asarlari mazmuni va ularda yoritib berilgan masalalar tahlil qilinadi. Shu o‘rinda, qo‘lyozma manbalar bilan bog‘liq ilmiy ishlar tadqiqotchidan o‘ziga xos yondashuvni talab qilishi, davr xususiyatlari, tarixiy termin va iboralarining murakkabligi bilan boshqa tadqiqotlardan ajrab turishini alohida ta’kidlash lozim.

ASOSIY QISM

Vasiliy Vladimirovich Bartold (1869-1930) – rus va sovet sharqshunosi, turkshunos, arabist, islomshunos, Rossiya sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri, akademik. Uning turli sohalardagi ilmiy tadqiqot va maqolalari 9 jildlik asarlar to‘plamida jamlangan. Xususan, “Islom tarixi va Arab xalifaligi bo‘yicha ishlar” nomli III jildida “Xalifa va Sulton” monografiyasi hamda “Islom” va “Musulmon dunyosi” kabi ocherklari o‘rin olgan bo‘lib, ularda teokratiya, islom va nasroniylik munosabatlari, musulmon “uyg‘onish davri” kabi masalalar yoritilgan (Бартольд В., 2002). Bartold tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi va sovet tuzumi g‘oyalariga xizmat qilgan qarashlar mavjudligini inobatga olish zarur.

Aleksandr Aleksandrovich Vasilyev (1867-1953) rus-amerikalik sharqshunos, xususan, Vizantiya tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lgan. Uning ilmiy asarlari Vizantiya imperiyasining tashkil topishidan to qulashigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va bu davr “Vizantiya tarixi bo‘yicha ma’ruzalar” turkumida yoritilgan. Shuningdek, olimning “Vizantiya va arablar: Amoriylar sulolasi davrida Vizantiya va arablarning siyosiy aloqalari” nomli dissertatsiyasi Vizantiya va Arab davlatlarining 820-867-yillardagi ichki tuzilishi, madaniyati va o‘zaro aloqalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Vasilyevning asarlari Vizantiya-arab munosabatlarini chuqur tahlil qilish, ko‘plab yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir (Васильев, 1923; Васильев, 1917).Y.A.Belyayevning “Арабы, ислам и Арабский халифат в раннее Средневековье” deb nomlangan asarida islom dinining paydo bo‘lishi, arab (Umaviylar, Abbosiylar) xalifaligining tashkil topishi, xalifalikdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tadqiq etilgan. “Мусульманское сектантство (Исторические очерки)” nomli tadqiqotida esa islom dinida paydo bo‘lgan turli yo‘nalish va oqimlarning mohiyati, ularning rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar haqida fikr yuritiladi (Беляев, 1966). Xususan, muallif oqimlar Yaqin va O‘rta Sharqda yashagan xalqlarning

iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotidan kelib chiqib shakllanganligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, ularning mafkurasi o'rta asrlar va yangi davrlarda islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlardagi o'zaro kurashlarning murosasiz ijtimoiy qarama-qarshiliklarini aks ettirishiga urg'u beradi.

Isaak Moiseyevich Filshtinskiy (1918-2013) – rus islomshunosi, arabist va arab adabiyoti bo'yicha mutaxassis. Uning "История арабов и Халифата (750-1517 гг.)" (Фильштинский, 2006) monografiyasi Abbosiylar hokimiyatga kelishidan to Usmonli turklar tomonidan Yaqin va O'rta Sharqning bosib olinishigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Unda islom aqidasining rivojlanishi, musulmon institutlari, turli oqimlar, qadimgi yunon va ellin merosining rivojlantirilishi, arab ilmiy-falsafiy tafakkuri va xatoba san'ati tahlil etilgan. "Халифат под властью Омейядов (661–750 гг.)" (Фильштинский, 2005) kitobida esa Roshid xalifalar va Umaviylar sulolasining faoliyati, VII-VIII asrlardagi xalifalikning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ichki ziddiyatlar, davlat tuzilishi, shialar va xorijiylar bilan bo'lgan nizolar sabablari tadqiq etilgan. "Арабы и Халифат" (Фильштинский, 2024) kitobida esa Abbosiylar davridagi arab-musulmon madaniyatining gullab-yashnashi, Suriya, Iroq va Misrning arablashtirilishi jarayoni yoritilgan. Filshtinskiyning arab-musulmon madaniyati va adabiyotiga bag'ishlangan "Очерки арабо-мусульманской культуры (VII-XII вв.). Арабская средневековая культура и литература" "История арабской литературы", "История арабской литературы V - начала X вв." va "История арабской литературы X-XVIII вв." kabi tadqiqotlarida arab mumtoz adabiyotining tarixi, janrlari va yirik vakillari haqida ma'lumot beriladi.

Pyotr Afanasyevich Gryaznevich (1929-1997-y.) – sobiq ittifoq davrida faoliyat olib borgan sharqshunoslardan. U arabshunoslik, eronshunoslik va islomshunoslik sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U 1961-yili filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U 1960-yili Xamaviyning "*at-Tarixu-l-Mansuriy*" (التاريخ المنصوري) – "Tarixi Mansuriy" asarining tanqidiy matnini nashr ettiradi va K.E.Bosvortning "Мусульманские династии" asarini ingliz tilidan rus tiliga tarjima qiladi. Shu bilan birga u islom davlatchiligi, tarixnavislik, qur'onshunoslik va boshqa tarixiy sohalar bo'yicha turli mazmundagi ilmiy maqolalar muallifi hamdir.

Arabiston yarimorolining qadimgi tarixi, yozuvlari haqida gap ketganda tarix fanlari doktori, professor Avraam Grigoryevich Lundinning (1929-1994-y.) tadqiqotlarini aytmaslikning iloji yo'q. U ilk somiy tillarining paydo bo'lishi muammolari bilan shug'ullangan. Lundin Rossiyaning Saboshunoslaridan[1] biri edi. U Janubiy Arabiston yarimoroli tarixi, madaniyati haqida ham tadqiqotlar olib borgan. Uning janubiy Arabiston yarimorolining antik davr tarixi, madaniyati, somiy tillar yozuvlariga oid 200 dan ortiq ilmiy ishlari mavjud.

MUHOKAMA

Ilk islom davri tarixi bilan shug'ullangan taniqli tadqiqotchilardan yana biri O.G. Bolshakov bo'lib, u o'z ishlarida asosiy e'tiborini Muhammad payg'ambar (s.a.v.) faoliyati, tashqi siyosati va arab istilolariga qaratdi. Oleg Georgiyevich Bolshakov 1929-yil 3-iyunda Rossiyaning Tver shahrida tug'ilgan va 1946-yilda Leningrad (hozirgi Sank-Peterburg) davlat universitetining sharq bo'limiga o'qishga kirgan. Talabalik davrlaridan boshlab O.G. Bolshakov Yaqin Sharq, O'rta Osiyo (asosan Mo'g'ulistongacha bo'lgan davr) va arab arxeologiyasi tarixiga oid manbalarni o'rganishga kirishdi. U umrining oxirigacha ushbu yo'nalishlar doirasida izlanishlar olib bordi. Bir so'z bilan aytganda O.G. Bolshakov ilmiy faoliyati davomida o'z ijodini sintez qilishga erishdi va bu uning sharqshunos sifatidagi noyob qobiliyati edi deyish mumkin. U arab tilli qo'lyozma manbalarni qunt bilan o'rgandi va ularni dadil ilmiy muomalaga kiritdi.

O.G.Bolshakovning olim sifatida shakllanishida uning ustozlari akademik I.Y.Krachkovskiy (1883-1951-y.), A.Y.Yakubovskiy (1886-1953-y.), I.P.Petrushevskiy (1898-1977-y.), V.I.Belyayev (1902-1976-y.), A M. Beleniskiylar (1904-1993-y.) hal qiluvchi rol o'ynadi. Uning "История халифата" nomli to'rt jilddan iborat monografiyasi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muhim manba hisoblanadi (Большаков, 1989). Monografiyaning birinchi jildida Arabiston yarim oroli, johiliyat davri, islom dinining shakllanishi va markazlashgan ilk musulmon davlati–Xalifalik institutining paydo bo'lishi masalalari yoritib berilgan.

Ikkinchi jildda Xalifa Umar ibn Xattobning xalifalikka tayinlanishi (13/634-y.), Usmon ibn Affonning qatl qilinishi (35/656-y.)ga qadar sodir

[1] Сабеистика – sabey tili va adabiyotini o'rganuvchi fan tarmog'i. Sabeylar qadimgi Janubiy Arabistonda (hozirgi Yaman hududlarida) yashagan xalqlardan biri bo'lib, ularning madaniyati va yozuvi miloddan avvalgi ming yillikkacha borib taqaladi. Sabey tili esa Janubiy Arabistonning boshqa qadimiy tillari kabi somiy tillar oilasiga mansub bo'lib, bu tilda turli hujjatlar, marosim yozuvlari va boshqa yodgorliklar yozilgan. Sabeistika fanining asosiy maqsadi sabey tilida yozilgan manbalarni o'rganish, sabeylar tarixi, madaniyati, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy hayoti haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishdan iborat. Sabey yozuvlari o'yilgan tosh lavhalar, yodgorliklar, qasr va ibodatxonalar devorlari va turli asboblarda saqlanib qolgan. Ulardan aksariyati Yamanning turli arxeologik joylaridan topilgan.

bo‘lgan voqealar va boshqa hududlarga uyushtirilgan harbiy yurishlar bayon qilingan. Ushbu davr arab-musulmon davlati tarixida qisqa, ammo o‘ta muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni qamrab olgan. Xalifalik tarixining uchinchi jildi arab-musulmon davlatining ichida sodir bo‘lgan o‘zaro diniy va siyosiy kurash davriga bag‘ishlangan. Unda islom dini qabul qilingandan keyingi birinchi va ikkinchi fuqarolar urushi bilan bog‘liq voqealar, Xorijiylar hamda shialar harakati, Ali ibn Abu Tolibning vafoti, Karbalo voqealari, Umaviylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi kabi masalalar tadqiq etilgan.

To‘rtinchi jildda 75/695-132/750-yillarda sodir bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Muallif mazkur qismda Ali ibn Abu Tolib va Muoviya ibn Abu Sufyon o‘rtasidagi ixtiloflarni batafsil ochib berishga harakat qiladi. U Karbalo fojiasini boshlanishiga sabab bo‘lgan omillar va Abdulloh ibn Zubayrning vafoti bilan tugagan tarixiy voqealarni tizimli o‘rganadi. Tadqiqotchining “Средневековый город Ближнего Востока” (Большаков, 2001) deb nomlangan asarida ilk bor VII-XIII asrlar o‘rtasidagi Suriya va Misr shaharlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalari, demografik jarayonlarini tadqiq etadi. Asarda turli manbalarga tayanib shaharlar aholisi, ularning ijtimoiy tabaqalari, mashg‘ulotlari, xalq harakatlarining yo‘nalishi va mafkurasi tadqiq etilgan.

Stanislav Mixaylovich Prozorov (1938-y.t.) – sobiq ittifoq va Rossiya Federatsiyasi tashkil topgandan keyin ham barakali ijod qilayotgan sharqshunos olimlardan biri. U asosan ilk va o‘rta asrlar tarixi, shialik oqimi va uning mafkurasi, islom dinining siyosiy tizimi, oqimlar o‘rtasidagi tafovutlar tarixshunosligi hamda manbashunosligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. 1971-yilda tarix fanlari bo‘yicha nomzodlik ishini himoya qilgan. U shia oqimlari, Iroq, Eron va O‘rta Osiyo adabiyoti tarixi, ensiklopedik qomuslar, tarixiy ocherklar, xrestomatiyalarga (Прозоров, 1980) muallif hamda mas’ul muharrir bo‘lgan. Shu bilan birga ko‘plab ilmiy maqolalar ham nashr ettirgan. S.M.Prozorov “Islom mafkuraviy tizim sifatida” (Ислам как идеологическая система) nomli asarida islomning umumiy mazmuni va mavzulari yo‘nalishlarini tizimlashtirish maqsadida turli tadqiqotlar hamda manbalarni tahlil qilishga harakat qilgan. Ayniqsa, muallif tomonidan asl manbalarni har tomonlama o‘rganish nafaqat ilmiy balki, yangi uslubiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini ham bergan. S.M.Prozorovning tadqiqotlari maqolalar, arab tilidan tarjima qilingan materiallar, o‘quv dastur va qo‘llanmalar, xalqaro anjumanlardagi ma’ruzalar, monografiyalar ko‘rinishida nashr etilgan. Ularning aksariyati so‘nggi o‘n yil ichida tayyorlangan va asosan ixtisoslashtirilgan jurnal hamda ilmiy to‘plamlarda chop etilgan. E’lon qilingan ishlar orqali islomni mafkuraviy tuzilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘liqroq tasavvur qilish mumkin.

Hozirgi davr Rossiya islomshunosligi, arabshunosligi va muzeyshunosligi darg‘alaridan Mixail Borisovich Piotrovskiyning ilmiy tadqiqotlari o‘rta asr arab-musulmon madaniyati va unda Qur’oni karimning o‘rni borasida bo‘ldi. Professorning “Южная Аравия в раннее Средневековье. Становление средневекового общества” monografiyasi V-X asrlarda Janubiy Arabiston (Yaman) tarixini tadqiq etgan (Пиотровский, 1985). Yaman jamiyatining islom dini kirib kelish arafasida va undan keyingi davrda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar mohiyatini ochib bergan. Kitobda ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi, hukmron qatlam ichidagi ichki ziddiyatlar, Yamanning etnik o‘ziga xosligining shakllanishi, yahudiylik, xristianlik va islom dinlar va diniy e’tiqodlar kurashi tasvirlangan.

Uning “Предание о химьяритском царе Асаде аль-Камиле” monografiyasi Janubiy Arabiston bilan bog‘liq bo‘lgan Himyoriylar shohi Asad Komil haqida bo‘lib, unda Himyorning islomgacha bo‘lgan davri tarixiy an’analari o‘rganiladi (Пиотровский, 1985). Tadqiqotda qo‘llanilgan uslub an’anasini islomgacha bo‘lgan Yaman tarixiga oid qimmatli manba sifatida baholanishi mumkin. Bu Arabiston yarim oroli tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega. Arabshunos va islomshunos olimning jonli va tushunarli tilda yozgan “Коранические сказания” tadqiqoti Qur’oni karim rivoyatlari Arabiston yarimorolida islomgacha mavjud an’ana va marosimlar, ularning paydo bo‘lishi, hamda arab-musulmon madaniyati tahlil qilingan. Uning mas’ul muharrirligida nashr etilgan “Ислам: Энциклопедический словарь” kitobi islom tarixi va mafkurasining umumiy va xususiy masalalarini jamoaviy tarzda o‘rganilgan tadqiqotdir. Unda rus sharqshunoslarining ilmiy izlanishlari jamlanib, jahon islomshunosligining bir qismi sifatida ko‘rish mumkin. Ensiklopediya 578 dona ilmiy maqolani o‘z ichiga olib, undagi materiallar islom dinining konseptual masalalari haqida axborot beradi. Islom mafkurasining nazariy va amaliy jihatlarini ochib beruvchi asosiy islomiy tushuncha, atama, shaxslar, fiqhiy maktablar, sufiylik jamoalari alifbo tartibida keltirilgan.

Islom tarixi va uning davlatchiligi bilan qiziqish G‘arb tadqiqotchilarining ham nazaridan chetda qolmadi. Vilyam Myur (1819-1905-y.) – Britaniyalik islomshunos. U Hindistonning shimoli-g‘arbiy viloyatlari gubernatori (1868-1874-y.), keyinchalik Londondagi Hindiston ishlari Kengashi a’zosi sifatida xizmat qilgan. Vilyam Myur Hindistonning Uttar-Pradesh shtatida faoliyat yuritayotgan Allohobod

universitetining asoschilaridan biri. Uning “Muhammad payg‘ambar hayoti va islom tarixi”, “Ilk xalifalik yilnomalari” (Muir, 1883), “Islomning yuksalishi va tanazzuli”, “Xalifalik, uning yuksalishi, tanazzuli va qulashi” (Muir, 1883) kabi asarlari ma’lum. Ularda islom tarixi bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan. Lekin, Vilyam Myurning tadqiqotlarida o‘zi yashagan davrga xos Yevropaning islom diniga nisbatan bir yoqlama qarashlari yaqqol sezilib turadi.

Alfred fon Kremer (1828-1889-y.) – avstriyalik sharqshunos. Venada arab tili professori, Qohira va Bayrutda bosh konsul, 1880-1881-yillarda esa savdo vaziri lavozimida ishlagan. Uning “O‘rta asrlarda Suriya va Damashq”, “Misr” (Kremer, 1863), “Islomda davlat idorasi usullari”, “Xalifalik davrida Sharq madaniyati tarixi” (Kremer, 1868) nomli kitoblarida islom tarixi, madaniyati, davlat boshqaruvi bo‘yicha tadqiqotlari natijalarini e’lon qilgan.

Ser Tomas Volker Arnold (1864-1930-y.) – britaniyalik sharqshunos-tarixchi va islomshunos. Islom madaniyati, san’ati va islom falsafasi bo‘yicha mutaxassis. U asosan islom tarixi, xalifalik, arab-musulmon san’ati (Arnold, 1965) tarixi bilan qiziqqan. Uning xalifalik tarixi asari tadqiqot obyektini tashkil etgan muammoga bag‘ishlagan. Bu asarda muallif xalifalik institutining tashkil topishi, uning diniy asoslari bo‘lmish Qur’on sunnatga muvofiqligi, xalifalik titullari, Abbosiylarning Bag‘dod va Misrdagi faoliyati, xalifalikdan sultonlikka o‘tish jarayonlari, Usmoniylar sulolasining faoliyati haqida tadqiqot olib borgan (Arnold, 1864). Shuningdek, xalifalik tarkibiga kirgan hududlardagi xorijiylar va shialarning harakatlari, davlat rahbarlarining rahbarlik titullari, ya’ni xalifa va sulton atamalarining mohiyati haqida ham to‘xtalib o‘tgan. Tomas Arnoldning deyarli barcha tadqiqotlarida islom diniga bo‘lgan obyektiv munosabat yaqqol sezilib turadi. Bu holat muallif yashagan davr va uning egallab turgan mavqeyini hisobga olinsa, o‘ta “noyob” holat deyish mumkin.

Adam Mets (1869-1917-y.) – Shveysariyalik sharqshunos, Bazel universiteti “Sharq tillari” kafedrasi professori bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Adam Mets juda iste’dodli o‘qituvchi edi. U o‘z shahrida yaxshi tanilgan bo‘lsa-da, uning nomi Shveysariya chegaralaridan tashqariga chiqmagan. Bu holat olimning 25-yillik ilmiy faoliyati davomida juda kam asarlar nashr ettirganligi bilan izohlanadi. “Мусульманский Ренессанс” (Adam Mez, 1922) deb nomlangan asari Adam Metsga katta shuhrat keltirgan. Lekin, asarni faqat qoralama nusxalari bo‘lib, oqqa ko‘chirilgan oxirgi nusxasi mavjud bo‘lmagan (Мец, 1973). Bu muallifni 1917-yil dekabr oyida bevaqt vafot etganligi bilan bog‘liq. Shunday bo‘lsa-da, asar 1922-yilda nemis, keyinchalik, ingliz (1927-y., 1937-y.), ispan (1936-y.), turk (1939-y.), arab (1940-1941-y.), rus (1973-y.) tillarida nashr etilgan. Uning yuqorida keltirilgan asari hijriy III-IV (milodiy IX-X) - asrlar arab xalifaligi madaniyati tarixiga bag‘ishlagan. U ko‘rsatilgan davrlar doirasida, tegishli manbalarni sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqan va ulardan “davrning madaniy va tarixiy tavsifi uchun xizmat qiladigan hamma ma’lumotlarni tanlab”, o‘z asariga kiritgan (Мец, 1973). Ko‘plab mutaxassislarning yakdil fikrlariga ko‘ra, Adam Metsning mazkur asari aynan IX-X-asrlar “arab imperiyasi” tarixiy-madaniy taraqqiyotining turli qirralarini ochib beruvchi materiallar to‘plamidir. Muallif, qonunchilik, boshqaruv, moliya va soliq siyosati, mahalliy urf-odatlar, odamlarning turmush tarzi, adabiyoti, din, ta’lim tizimi haqida so‘z yuritadi. Unda, bayramlar, shahar hayoti, uy xo‘jaligi, ichki va tashqi savdo bo‘yicha ham ishonchlik manbalardan ma’lumotlar keltirilgan.

Leone Kaetani (1869-1935 y.) – italyan tarixchisi, islomshunosi va siyosatchisi. Kaetani islomning yoyilish nazariyasi muallifi. Bu nazariyaga ko‘ra, go‘yoki somiylarning avlodlari Arabistondan jismoniy va geografik sharoitlarning o‘zgarishi tufayli ko‘chmanchi qabilalar vaqti-vaqti bilan Mesopotamiya, Falastin va Suriyaga ko‘chib o‘tganlar. Bu mamlakatlarda o‘troq turmush tarziga o‘tgan ko‘chmanchilar shahar va davlatlarga asos solgan. Islom bayrog‘i ostida Osiyo va Afrikadagi ulkan hududlarga kirib kelgan arablar, ushbu yerlarni arablashtirdilar. Shunday qilib, Kaetani islom dinining paydo bo‘lishini Arabiston aholisining ko‘chish harakatining so‘nggi bosqichi deb hisobladi va uni Muhammad (s.a.v.) faoliyati bilan chambarchas bog‘laydi. Kaetani nazariyasi bir qator sovet mualliflariga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi (Caetani, 1905-1922). Kaetanining asarlari birlamchi arab manbalaridan to‘laqonli istifoda eta olganligi bilan (italyan tiliga tarjima qilingan) qimmatlidir (Caetani, 1913-1930).

Gustav Edmund fon Gryunebaum 1909-yilda Avstriyaning Vena shahrida tug‘ilgan va 1972-yili Los-Andjelesda vafot etgan. U islom tarixiga oid o‘ndan ortiq asarlar muallifi. Jumladan, “Islom va O‘rta asr ellinizmi: ijtimoiy va madaniy istiqbollar”, “Tanqid va she’riyat. Arab adabiyoti tarixi bo‘yicha tadqiqotlar”, “Islom klassikasi. Tarixiy ocherk (600-1258-y.)” kabi asarlari (Grunebaum, 1970) tadqiqotchilar e’tiboriga tushgan. Mazkur asarlarda ijtimoiy-siyosiy omillarga alohida e’tibor qaratilib, islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlarning turli tabaqalari, tuzilmalari va ma’naviy dunyosini o‘zgartirishda islom dinining tutgan o‘rnini ochib beradi. U musulmon Sharqi madaniy hayotini “katta” va “kichik” an’analar, ya’ni yagona “umumiy musulmon ideali” va mahalliy madaniyatlarning

uzluksiz o‘zaro ta’siri sifatida baholaydi. Bu “yagona” islom, “yagona musulmon sivilizatsiyasi” haqidagi g‘oyalarning nomuvofiqligini ko‘rsatadi.

Uning “Islom klassikasi. Tarixiy ocherk (600-1258-y.)” deb nomlangan asari 1988-yilda I.Dijur tomonidan rus tiliga tarjima qilingan (Grunebaum, 1970). Asarda Madina shahrining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ahamiyati, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ning tarjimai holi va yuritgan siyosati, arablarning Vizantiya imperiyasi hamda Eron davlatlariga yurishlari, xalifalikning tashkil topishida to tugatilgunicha bo‘lgan tarixi yoritib berilgan. Shuningdek, unda Misr, Xuroson, Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilgan Fotimiylar, Tuluniylar, G‘aznaviylar sulolalari tarixi, islom ilohiyoti va falsafasi kabi masalalar o‘rin olgan. Muallif, asarlarida Arabiston yarim orolida yashagan qabilalarning etnik birligi, mahalliy urf-odatlari, o‘ziga xos madaniyatiga alohida to‘xtalib o‘tadi. U “islom dini avval boshdanoq, inson his-tuyg‘ulariga e’tibor qaratib, dunyo intellektual olamiga ta’sir o‘tkazdi va foydali bo‘lgan siyosiy jamiyatni yaratdi” deb ta’kidlaydi. Fon Gryunebaum G‘arbga xos tarzda musulmon madaniyati tarixini tasniflash va baholash yo‘lidan boradi hamda boshqa madaniyatlar bilan solishtirib ularni farqlarini ko‘rsatib berishga harakat qiladi.

Vilyam Montgomeri Vott (1909-2006-y.) – Britaniyalik islomshunos, arabshunos va tarjimon. Edinburg universitetining faxriy professori. U islom falsafasi, madaniyati va tarixi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Xususan, uning “Musulmon Ispaniyasi tarixi”, “Muhammad Makkada” (Watt, 1953), “Muhammad Madinada” (Watt, 1956), “O‘rta asrlarda Islomning Yevropaga ta’siri” kabi asarlari chuqur ilmiy tahlilga ega manbalar sirasiga kiradi. U o‘z tadqiqotlarida islom genezisining ijtimoiy asoslari va tarixiy shart-sharoitlari, uning siyosiy hamda iqtisodiy omillari, turli mafkuralarning musulmon davlatlari aholisi hayotiga ta’siri masalalarini tahlil qiladi. Vilyam Montgomeri Vottning islom diniga hurmat bilan yondashuvi va tarixiy faktlarga obyektiv baho berishi sababidan bo‘lsa kerak, uning ayrim asarlari rus tiliga tarjima qilinib nashr etilgan.

Tadqiqot obyektini tashkil qilgan mavzu tabiiyki, arab tadqiqotchilarini ham qiziqtirgan. Muhammad Xudariy (1872-1927-y.) misrlik adabiyotshunos, faqih va tarixchi. Qohira universitetini tamomlagan. Xartumda shar’iy qozi, Qohiradagi shar’iy qozilar maktabida va Misr universitetida islom tarixi fanidan o‘qituvchisi, hamda ta’lim vazirligida taftishchi lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Uning siyra janrida yozgan “*Nuru-l-yaqiyn fiy siyrati-l-mursaliyn*” (نور اليقين في سيرة سيد المرسلين) – “Payg‘ambarlar sayyidi haqidagi ko‘zga yaqin siyra” (Al-Xudarī, 2000) asari uslubining yengilligi, jumlalar tuzilishidagi soddalik, eng asosiysi ma’lumotlarning ishonchliligi tufayli musulmon xalqlari orasida shuhrat qozongan. Bu asar ko‘plab tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Muhammad Xudariyning ushbu asari hozirgi kungacha O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy ma’had va madrasa talabalari uchun asosiy adabiyotlar sirasiga kiritilgan.

Muallifning “*Muhodorot fiy tarixi-l-umami-l-islomiyya*” (محاضرات في تاريخ الأمم الإسلامية) – “Musulmon hukmron dinastiyalari tarixidan ma’ruzalar” asari ikki jilddan iborat bo‘lib, birinchi qism “Umaviylar davlati” (Al-Xudarī, 2011), ikkinchi qism esa “Abbosiylar davlati” (Al-Xudarī, 2003) tarixiga bag‘ishlagan. Shuningdek, xalifalar tarixi bo‘yicha asari asosan Xulafoi roshidun (Al-Xudarī, 2000) davriga bag‘ishlangan. Muhammad Xudariyning tarixiy asarlaridagi ma’lumotlarning ishonchliligi yangi davr tadqiqotchilari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Muallif o‘z tadqiqotlarida avvalo manbalarda keltirilgan xabarlarning ishonchliligiga hadisdan dalil topishga harakat qilsa, keyingi o‘rinlarda birlamchi manbalarga murojaat qiladi.

Hasan Ibrohim Hasan (1892-1968 y.) misrlik tarixchi. U Islom sivilizatsiyasi, madaniyati, siyosati tarixi bilan shug‘ullangan. U 1935-yili o‘zining “Islomning diniy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy tarixi” (Ḥasan Ibrāhīm, 2001) monografiyasining birinchi jildini nashrdan chiqardi. Bu jild hijratdan umaviylargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Shuningdek, Islomdan oldingi arablarning hayoti, Islom dining arablar turmush-tarziga ta’siri va Makka davri haqida ham to‘xtalib o‘tgan. Muallif 1939-yili o‘zining ukasi doktor Ali Ibrohim Hasan bilan hammualliflikda “*an-Nuzumul-islomiyya*” (النظم الاسلامية) – “Islom davlati nizomlari (tartib-qoidalari)” kitobi nashrdan chiqdi (Ḥasan Ibrāhīm, 2001). Asarda siyosiy, iqtisodiy, boshqaruv, qozilik tizimlari muhokama qilingan. Shuningdek, musulmonlar orasida yashagan g‘ayridinlar va qullar masalalari ham tadqiq etilgan. Mavzuning murakkabligi va o‘z o‘rnida muhimligi bois ko‘pchilik tarixchilar bu masalaga murojaat qilmaganlar. Lekin bundan hech kim bu mavzu bilan qiziqmagan, degan xulosa chiqmaydi.

Hasan Ibrohim o‘z tadqiqotida tarixning siyosiy aspektlaridan ko‘ra iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jabhalarini ko‘proq ochib berishga harakat qiladi. U ma’lumotlarni berishda obyektivlik va tarixiylik prinsiplariga sodiq qoladi. Shuningdek, birlamchi manbalarga murojaat qilganda, ularni izchillik bilan tadqiq etib, muallifning diniy-siyosiy yoki biror firqaga mansubligi, uning fikrini qay darajada istifoda qilish mumkinligi bo‘yicha o‘z fikrlarini berib o‘tadi.

Islomning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi bilan shug‘ullangan yana bir zabardast arab olimlaridan Abdulmun’im Mojid (1921-1999-y.) bo‘lib, u bu sohada bir qator tadqiqotlarni amalga oshirdi. U asosan johiliyat, Muhammad (s.a.v.), Xulafoi roshidun (Majid, 1982), Umaviylar, Abbosiylar, Fotimiy va Mamluk sultonlari (Majid, 1998) haqida tadqiqotlar olib bordi. U asosan davlat tizimi, siyosiy-iqtisodiy nizomlar bilan ko‘proq qiziqdi. Uning ilmiy tadqiqot doirasi islom tarixini asosan Misr bilan bog‘liq bo‘lgan, deyish mumkin. Chunki uning asosiy tadqiqotlari sulolalar davlat boshqaruvining Misr davriga taalluqli. Salohiddin Ayyubiyning salibchilarga qarshi kurashi haqida ham tadqiqoti ham nashr qilingan. O‘rta asrlarda islom tamadduni ham muallifning nazaridan chetda qolmagan. Muallifning Islom tarixi bo‘yicha olib borgan tadqiqoti juda katta davrni o‘zi ichiga olishi, uning Misr universitetlarida uzoq yillar Islom tarixi fanidan ma’ruzalar o‘qiganligi bilan izohlash mumkin.

Mahmud Shokir[2] (1932-1956-y.) islom tarixiga oid 22 jilddan iborat islom tarixi kitobni nashr qildirgan (Shākir, 1995). Mazkur tadqiqot Payg‘ambarlikdan avvalgi davrdan boshlab, olimning vafot etgungacha bo‘lgan davrni qamrab olgan. Tadqiqotning har bir jildi alohida tarixiy davrlarga bo‘lib taqsimlangan. Asarni shartli ravishda ikki bo‘limga bo‘lish mumkin: tarixiy davr va islomning hozirgi davr tarixi. Tarixiy qismi Payg‘ambarlikdan avvalgi davrdan boshlanib, siyra, roshid xalifalar, umaviylar, abbosiylar, usmoniylar, islom boshqaruvi haqidagi tushunchalar bilan yakunlangan. Noma’lum sabablarga ko‘ra tadqiqotning 10 va 12 – jildlari nashr qilinmagan. Tadqiqotning 11 jildi 1924-1991-yillarda Iroq davlati, 13 jildi 1924-1989-yillarda Misrning Nil vodiysi va Sudan, 14 jildi Mag‘rib o‘lkasi, 15 jildi 1924-1992 G‘arbiy Afrika, 16 jildi Sharqiy Afrika, 17 jildi 1924-1989-yillarda Turkiya, 18 jildi Eron va Afg‘oniston, 19 jildi 1924-1991-yillarda Hindiston, 20 jildi Janubi Sharqiy Osiyo, Malayziya va Indoneziya, 21 jildi Rossiya imperiyasi musulmonlari, 22 jild esa musulmonlar kamchilikni tashkil etadigan hududlar tarixiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda voqea-hodisalarga munosabatda obyektivlik yaqqol sezilib turadi. Mahmud Shokir ma’lumotlarni saralashda muallifni sinchiklab o‘rganadi, ixtilofli masalalarga nisbatan o‘z fikrini bildiradi.

Jumladan, Akrom Ziyo Umariy1942-) y.t.) islom tarixi va siyra bilan shug‘ullangan tadqiqotchilardan. Uning “السيرة النبوية الصحيحة” – “Payg‘ambarning ishonchli siyratlari” (Al-Umarī, 1994) va “عصر الخلافة الراشدة” – “Roshid xalifalar davri” kitoblari (Al-Umarī, 2001) siyra va Roshid xalifalar davri bo‘yicha ishonchli tadqiqotlardir. Muallif har ikkala tadqiqotida ham voqea-hodisalarning ketma-ketligini sanalar bo‘yicha emas, tematik shaklda keltiradi. Avval voqeaning diniy, siyosiy va iqtisodiy negizi, kelib chiqish sabablari va oqibatlarini asosli ravishda bayon etadi. Berilgan har bir ma’lumotni faktlar bilan ta’kidlaydi. Ma’lumotlarni birlamchi manbalardan olishga harakat qilgan va bir-biriga zid holatlarda o‘z qarashlari va mantiqiy ustunlikni ko‘rsata bilgan. Muallif o‘z tadqiqotlarida diniy yoki siyosiy guruhbozlikka yo‘l qo‘ymasligi bilan ajralib turadi. Bu esa albatta uning xulosalari obyektivligi va ishonchliligi darajasini oshiradi.

Islom tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida gap ketganda Muhammad Sallobiyning tadqiqotlarini sanab o‘tish muhim. Doktor 1963 yili Liviyaning Bing‘aziy shahrida tug‘ilgan. U ko‘plab tarixiy asarlar muallifi. Muhammad Sallobiy hozirgi paytda Xalqaro musulmon olimlari ittifoqining Bosh kotibi hisoblanadi. U islom tarixiga oid bir qator kitoblar muallifi. Jumladan, Payg‘ambarlar tarixi, siyra davri, xulafoi roshidun, Umaviylar, Abbosiylar, Fotimiylar, Usmoniylar, mashhur tarixiy shaxslar va diniy-siyosiy firqalar borasida ham tadqiqotlar olib borgan. Uning nashrdan chiqqan kitoblari 80 dan ziyod.

Doktor Muhammad Sallobiy biror mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borganda masalaga juda chuqur kirishadi. Masalan, biror tarixiy shaxs haqida gap ketganda, uning nasl-nasabi hattoki, yetti bobosini izchillik bilan tahlil etishga harakat qiladi. Shuningdek, obyekt qilib olingan shaxs yashagan hududning geografik holati, diniy-siyosiy muhit, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini birlamchi manbalar asosida o‘rganib chiqishga harakat qiladi. U biror sulola haqida kitob nashr qilsa, albatta uning tanazzulga uchrash sabablarini haqida alohida tadqiqot chop etadi. U Karbalo voqeasi, Abdulloh ibn Zubayrning xalifaligi haqidagi monografiyasi islom olamida mashhur bo‘lgan ikkinchi fuqarolar urushi, ya’ni ikkinchi fitnaning boshlanishi va tugatilishi haqida yozilgan. Ushbu kitoblar keyingi tadqiqotlar uchun zamin bo‘ladi, degan umiddamiz. Olimning shaxsiy saytida audio, video va nashr qilingan kitoblarning elektron nusxasi tijorat maqsadlari ko‘zlanmagan holda joylashtirilgan.

NATIJA

Arab musulmon davlatchiligi masalalarining ayrim jihatlari mahalliy sharqshunos, tarixchi olimlar tomonidan ham o‘rganilib ilmiy muomalaga kiritilgan. Xususan, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibidagi institutlarda ilmiy tadqiqot olib borgan islomshunos,

[2] Mahmud Shokir haqida so‘z borganda ko‘pchilik misrlik adib Abu Fihr Mahmud Muhammad Shokir (1909-1997-y.)ga adashtirishadi. Bu tadqiqotchi Suriyaning Harasto shahrida tug‘ilganligi uchun Mahmud Shokir al-Harastoniy, deb ataladi.

faylasuf olim, falsafa fanlari doktori, professor Usmonov Mutallib Ahmedovich (1924-1994-y.)ni xizmatlari katta bo‘ldi. Olim O‘rta Osiyo universiteting sharqshunoslik fakultetini, Moskvadagi Ijtimoiy fanlar akademiyasini tugatgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutida bo‘lim mudiri, sobiq SSSRning Afg‘onistondagi elchixonasida maslahatchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida yetakchi konsultant, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida islomshunoslik bo‘limining va Qur’oni karimni tarjima qilish guruhining boshlig‘i. Uning ilmiy faoliyati islom dini, uning aqidalari, marosimlariga, Qur’oni karimning sharhlariga bag‘ishlangan. Olim ateizm hukmronlik qilgan sovetlar tuzumi davrida O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib Qur’oni karim tarjimasi va ilmiy sharhiga qo‘l urgan, bu borada ko‘plab ilmiy ommabop kitoblar nashr etgan.

Tarix fanlari doktori, professor U.Uvatov (1940-2020-y.) 1964-yilda Toshkent davlat universitetining sharq tillari fakultetini tamomlagan. O‘rta Osiyodan, ayniqsa, O‘zbekiston hududidan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Hakim Termiziy, Nasafiy kabi ko‘plab buyuk allomalarning hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish olimning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Olim 1974-yilda XV asr arab tarixchisi Ibn Arabshohning Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan tarixiy asari asosida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olib, 2002-yilda “Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Buxoriy, Muslim, Termiziy)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Professor U.Uvatov IX-XII asrlarda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy merosni nodir qo‘lyozma manbalar asosida o‘rgangan, chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetuk manbashunos olim sifatida nafaqat respublikamizda balki, xorijda ham tanilgan. U.Uvatov uzoq yillar yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalarning hayoti va boy ilmiy-ma’naviy merosini keng jamoatchilikka yetkazib, ularni chin ma’noda xalqimizning ma’naviy mulkiga aylantirish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. U 1992-yilda Ibn Arabshohning “*Ajoibu-l-maqdur fi tarixi Taymur*” (عجائب المقدور في أخبار تيمور) – “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarini arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirdi. Asar temurshunos olimlar, tadqiqotchilar, tarixga qiziquvchi barcha soha vakillari uchun Amir Temurning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari haqida muhim ma’lumotlar beruvchi manba bo‘lib xizmat qilmoqda. U.Uvatov tomonidan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy va Abu-l-Muin Nasafiy kabi allomalarga bag‘ishlangan risolalari ilmiy jihatdan nodir va hassosligi ajralib turadi. Olim xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy ilmiy markazi kabi muassasalarda samarali faoliyat olib bordi. Xususan, Islom tarixi va manbashunosligi sohalarida ko‘plab nomzodlik va doktorlik ishlariga ilmiy rahbarlik qildi.

Tarix fanlari doktori, professor Sh.S.Kamoliddinov (1955-y.t.) 1980-yili Toshkent davlat universitetining sharq fakultetini tamomlagan. U o‘z ilmiy faoliyatini O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida manbashunoslik masalalari bilan shug‘ullanishdan boshlagan. Sh.S.Kamoliddinov 1988-yilda manbashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Abu Said Abdulkarim ibn Muhammad Somoniyning “*kitobu-l-ansob*” asari – Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganishda tarixiy manba sifatida” (“Китаб ал-Ансаб” Абу Са’да Абд ал-Карима ибн Мухаммада ас-Сам’ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии) deb nomlangan mavzuda nomzodlik, 1993-yilda “IX-XIII asr boshlariga oid arab tilli manbalarda Tohariston va Janubiy Sug‘dning tarixiy geografiyasi” (Историческая география Тахаристана и Южного Согда по арабоязычным источникам IX – нач. XIII вв.) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Sh.S.Kamoliddinov hozirgi kunda o‘z ilmiy faoliyatini manbashunoslik va tarixiy geografiya yo‘nalishlarida olib bormoqda.

U Balazuriyning “*Futuhu-l-buldon*” asarining Xurosonni fath etilishiga bag‘ishlangan qismini arab tilidan tarjima qilib, 2017-yili nashr ettirdi. Tadqiqotchi tomonidan Ibn Xavqalning mashhur “*Suratu-l-ard*” (صورة الأرض) – “Yerning surati” asarining Movarounnahrga bag‘ishlangan qismini o‘zbek tiliga tarjima qilinishi esa tadqiqotchilar uchun muhim yangilik bo‘ldi (Балозурий, ٢٠١٧). Shuningdek, muallifning Somoniyni “*Kitobu-l-ansob*” (كتاب الأنساب) – “Nasablar haqida kitob” asarini mazmuni, manbashunoslik va tarixshunoslik tahliliga bag‘ishlangan monografiyasi tabaqot janri bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarining tarjimasi va ularga berilgan sharhlar ham yurtimiz tarixini o‘rganuvchilar uchun ahamiyatlidir (Балозурий, ٢٠١٧).

Arabiston yarimorolining Islomgacha va undan keyingi tarixi bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan tarix fanlari doktori, professor A. Hasanov (1940-y.t.)ni alohida ta’kidlash zarur. Olim 1964-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet) ning sharq fakultetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini mazkur universitetda “Arab davlatlari tarixi” fanidan dars berishdan boshlagan. Misr, Liviya va boshqa arab

davlatlarida uzoq muddat xizmat safarida bo‘lgan. 1975-yilda “Mamluklar Misrining Cherkes sultonlari davridagi ijtimoiy-siyosiy tizimi (1382-1517)” (Социально-политический строй мамлюкского Египта при черкесских султанах (1382-1517))” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, 1994-yilda esa “Qadimgi Arabiston tarixi va uni o‘rganish muammolari” (История древней Аравии и проблемы её изучения) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

2000-yil 16-sentyabrda Toshkent islom universitetida YUNESKO Bosh kotibi Koichiro Matsuuro ishtirokida dunyodagi 12 ta kafedraning biri bo‘lgan “Jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish YUNESKO” kafedrasi ochilgan. Mazkur kafedraga dastlab professor A.Hasanov rahbar etib tayinlangan. Olim kafedra faoliyatini tashkil etish, xalqaro oliy o‘quv yurtlari bilan ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlashda samarali mehnat qildi. Ustozning ilmiy-ijodiy va ta’lim-tarbiya sohasidagi uzoq yillar davomida olib borgan samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Professor A.Hasanov 2011-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi.

A.Hasanov 200 ga yaqin ilmiy maqola, monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va risolalar muallifidir. U johiliyat, ilk islom davri, Makka va Madina tarixi (Ҳасанов, 1992), tarixshunoslik, buyuk shaxslarning hayoti va faoliyatiga oid tadqiqotlar olib bordi. Mazkur tadqiqotlarda Arabiston yarim orolining Islomdan oldingi davri, arab qabilalarining urf-odatlari, udumlari, Makka va Madina aholisining kelib chiqishi, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hayoti birlamchi manbalarga tayanib ochib berilgan (Ҳасанов, 2001). Ular tomonidan istifoda etilgan manba va adabiyotlar o‘zining ishonchliligi bilan ajralib turadi. Professor Ahadjon Hasanov bir necha yillardan beri O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida talaba-yoshlarga johiliyat, islom tarixi va falsafasi, hamda islom manbashunosligi fanlaridan saboq berib, nomzodlik va doktorlik ishlariga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning islom tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqoti samarali bo‘ldi. Olimning tadqiqot obyekti bo‘lgan davr bo‘yicha olib borgan “Hadis va hayot” silsilasida Muhammad (s.a.v.) hayoti haqida alohida jild ajratilgan. Uning “Ochiq xat” nomli monografiyasi islom niqobi ostida harakatlanayotgan terroristik tashkilotlarning asl maqsadi, xudkushlikning tarixiy ildizi, islom ummatiga ochiq xat tarzida bayon etilgan. Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar manbalari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, Islom tarixi bo‘yicha monografiya ikki jilddan iborat bo‘lib, uning birinchi jildi Odamning yaratilishidan boshlab Xulafoi roshidun davrigacha, ikkinchi jild esa, umaviylardan bugungi kun musulmon olamigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan (Муҳаммад Юсуф, 2021). Bu mo‘jazgina tadqiqot o‘z ichiga juda katta davrni qamrab olgan bo‘lsada, ensiklopedik asar deyish mumkin. Undagi ma’lumotlar birlamchi manbalar asosida tasdiqlangan. Voqea-hodisalarga nisbatan obyektivlik prinsipiga amal qilingan.

XULOSA

Ta’kidlash lozimki, islom davlatchiligi tarixi, undagi diniylik va dunyoviylik prinsiplarining o‘zaro munosabati borasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Nashr etilayotgan ko‘plab kitoblar ilmiy ahamiyat kasb etmagani sabab, aholida ommabop kitoblarga bo‘lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Umid qilamizki, kelgusida tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarini nashr qilib aholi, o‘quvchi va talabalarning bu sohadagi saviyalarini oshirishga xizmat qiladilar.

Islom tarixi, arab-musulmon madaniyatini o‘rganish G‘arb va Rossiya tadqiqotchilarining ham nazaridan chetda qolmadi. Ularning ba’zilari muammoga obyektiv yondashsalar, boshqalarining ishlarida noxolislik yaqqol sezilib turadi. Aynan sobiq ittifoq davridagi “Союз воинствующих безбожников (Ashaddiy xudosizlar ittifoqi)” a’zolari tomonidan yozilgan ishlar shular jumlasidandir.

Xorijiy Sharq mamlakatlari tadqiqotchilarining mavzu bo‘yicha izlanishlarining ko‘rsatkichi yuqori. Aytib o‘tilganidek, mavzuga oid o‘rta asr adabiyotida keskinlik yuqori bo‘lsa, yangi davr tadqiqotchilarining siyra va tarix bo‘yicha yozgan ishlarida ilmiy tahlil sezilib turadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, keyingi davr mualliflari fiqh, tafsir, hadis, tarix kabi sohalarga xususiylasha boshladilar.

O‘zbek kitobxonlariga taqdim etilayotgan tadqiqotlarning aksariyati xorijiy tillardan, xususan turk tilidan xaridorgir, ommabop badiiy adabiyotlar tarjima qilinmoqda. Achinarlisi siyra va islom tarixi bilan bog‘liq aksariyat tarjima asarlarning mualliflari mutaxassis tarixchilar emas yozuvchilardir.

So‘ngi yillardagi islohotlar natijasi o‘laroq respublikada islom dini bilan bog‘liq qator ilmiy tadqiqotlar, yangi tashkil etilgan ilmiy markazlarda olib borilayotgan izlanishlar aholining islom dini va u bilan bog‘liq barcha masalalar yuzasidan ehtiyojini qondirmoqda. Jumladan, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchilarining ulushi yuqori.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. أبو العباس أحمد بن يحيى البلاذري. (2017). فتوح البلدان / ترجمة، تعليقات وشروح: كمال الدين ش.س. طشقند: طشديشي.
2. الخضري، محمد. (2000). نور اليقين في سيرة سيد المرسلين. بيروت: المكتبة العصرية.
3. الخضري، محمد. (2003). الدولة العباسية. بيروت: دار القلم.
4. الخضري، محمد. (2011). الدولة الأموية. بيروت: دار القلم.
5. العمري، أكرم ضياء. (1994). السيرة النبوية الصحيحة. المدينة المنورة: مكتبة العلوم والحكمة.
6. العمري، أكرم ضياء. (2001). عصر الخلفاء الراشدين. الرياض: مكتبة العبيكان.
7. Arnold, Thomas Walker. (1864). The Caliphate (With an Additional Chapter by Sylvia G. Haim). London: Routledge and Kegan Paul.
8. Arnold, Thomas Walker. (1965). Painting in Islam: A Study of the Place of Pictorial Art in Muslim Culture. Oxford: Clarendon Press.
9. الصلابي، محمد. (2001). أبو بكر الصديق: شخصيته وعصره. بيروت: دار المعرفة.
10. الصلابي، محمد. (2003). السيرة النبوية: عرض وقائع وتحليل أحداث. بيروت: دار المعرفة.
11. الصلابي، محمد. (2005). الدولة الأموية. بيروت: دار المعرفة.
12. Бартольд, Василий Владимирович. (2002). Работы по истории ислама и арабского халифата. Москва: ГРВЛ.
13. Беляев, Евгений Алексеевич. (1966). Арабы, ислам и арабский халифат в раннем Средневековье. Москва: Наука.
14. Большаков, Олег Генрихович. (1989–2010). История халифата (в 4 томах). Москва: ГРВЛ.
15. Большаков, Олег Генрихович. (2001). Средневековый город Ближнего Востока: VII – середина XIII вв.: Социально-экономические отношения. Москва: Восточная литература.
16. Bosworth, Clifford Edmund. (1971). Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии / Пер. с англ. П.А. Грязневич. Москва: ГРВЛ.
17. Caetani, Leone. (1905–1922). Annali dell’Islam (10 volumi). Tipografia Commerciale.
18. Caetani, Leone. (1913–1930). Studi di storia orientale (10 volumi). Roma: Istituto per l’Oriente.
19. حسن، حسن إبراهيم. (2001). تاريخ الإسلام السياسي والديني والثقافي والاجتماعي (4 مجلدات). بيروت.
20. Ҳасанов, Абдураҳим. (1992). Макка ва Мадина тарихи. Тошкент: Меҳнат.
21. Ҳасанов, Абдураҳим. (2001). Қадимги Арабистон ва илк ислом: I китоб. Жоҳилия асри. Тошкент: ТИУ.
22. Kremer, Alfred von. (1863). Aegypten: Forschungen über Land und Volk während eines zehnjährigen Aufenthalts. Leipzig: Brockhaus.
23. Kremer, Alfred von. (1868). Geschichte der herrschenden Ideen des Islams: Der Gottesbegriff, die Prophetie und Staatsidee. Leipzig: Brockhaus.
24. مجيد، عبد المنعم. (1982). التاريخ السياسي للدول العربية: عصور الجاهلية والنبوية والخلفاء الراشدين. القاهرة: مكتبة الأنجلو المصرية.
25. مجيد، عبد المنعم. (1998). التاريخ السياسي للدول العربية: العصر الأموي. القاهرة: مكتبة الأنجلو المصرية.
26. Mez, Adam. (1922). Die Renaissance des Islams. Heidelberg: Carl Winters Universitätsbuchhandlung.
27. Мец, Адам. (1973). Мусульманский Ренессанс. Москва: ГРВЛ.
28. Muir, William. (1883). Annals of the Early Caliphate: From Original Sources. London.
29. Muir, William. (1892). The Caliphate: Its Rise, Decline and Fall. London.
30. Пиотровский, Михаил Борисович. (1985). Южная Аравия в раннее Средневековье. Становление средневекового общества. Москва: ГРВЛ.
31. Прозоров, Семён Михайлович. (1980). Арабская историческая литература в Ираке, Иране и Средней Азии (VII – середина X вв.). Москва: ГРВЛ.
32. Прозоров, Семён Михайлович. (1991). Ислам. Историографические очерки. Москва: Наука.
33. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам / Тарж. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2021). Тошкент: Ҳилол нашр.
34. شاكر، محمود. (1995–2000). التاريخ الإسلامي (22 مجلدًا). القاهرة: دار المعارف.
35. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2021). Ислом тарихи (2 жилд). Тошкент: Ҳилол нашр.
36. Усмонов, Муҳаммад Амир. (1972). Диний ақидалар ва уларнинг моҳияти. Тошкент.
37. Von Grunebaum, Gustave Edmund. (1970). Classical Islam: A History, 600–1258. London.
38. Watt, William Montgomery. (1953). Muhammad at Mecca. Oxford: Clarendon Press.
39. Watt, William Montgomery. (1956). Muhammad at Medina. Oxford: Clarendon Press.
40. Уотт, Уильям Монтгомери. (2008). Влияние ислама на средневековую Европу. Санкт-Петербург: Диля.
41. Фильштинский, Илья Миронович. (2005). Халифат под властью Омейядов (661–750 гг.). Москва: Северо-Принт.
42. Фильштинский, Илья Миронович. (2006). История арабов и халифата (750–1517 гг.). Москва: АСТ.
43. Фильштинский, Илья Миронович. (2024). Арабы и халифат. Москва: Ломоносов.

REFERENCES

1. Abu Al-‘Abbas Ahmad Ibn Yahya Al-Baladhuri. (2017). *Futuh Al-Buldan / Tarjima, Izohlar Va Sharhlar: Kamoliddin Sh.S.* Tashkent : TashDSHI.
2. Al-Khudari, Muhammad. (2000). *Nur Al-Yaqin Fi Sirat Sayyid Al-Mursalin.* Beirut : Al-Maktaba Al-‘Asriyya.
3. Al-Khudari, Muhammad. (2003). *Ad-Dawla Al-‘Abbasiyya.* Beirut : Dar Al-Qalam.
4. Al-Khudari, Muhammad. (2011). *Ad-Dawla Al-Umaviyya.* Beirut : Dar Al-Qalam.
5. Al-‘Umari, Akram Diya’. (1994). *As-Sira An-Nabawiyya As-Sahiha.* Medina : Maktabat Al-‘Ulum Wa Al-Hikma.
6. Al-‘Umari, Akram Diya’. (2001). *‘Asr Al-Khulafa’ Ar-Rashidin.* Riyadh : Maktabat Al-‘Ubaykan.
7. Arnold, Thomas Walker. (1864). *The Caliphate (With An Additional Chapter By Sylvia G. Haim).* London: Routledge And Kegan Paul.

8. Arnold, Thomas Walker. (1965). *Painting In Islam: A Study Of The Place Of Pictorial Art In Muslim Culture.* Oxford : Clarendon Press.
9. As-Sallabi, Muhammad. (2001). *Abu Bakr As-Siddiq: Shakhsiyyatuhu Wa 'Asruhu.* Beirut : Dar Al-Ma'rifa.
10. As-Sallabi, Muhammad. (2003). *As-Sira An-Nabawiyya: 'Ard Waqa'i' Wa Tahlil Ahadath.* Beirut : Dar Al-Ma'rifa.
11. As-Sallabi, Muhammad. (2005). *Ad-Dawla Al-Umaviyya.* Beirut : Dar Al-Ma'rifa.
12. Bartold, Vasiliy Vladimirovich. (2002). *Raboty Po Istorii Islama I Arabskogo Khalifata.* Moscow : GRVL.
13. Belyaev, Evgeniy Alekseevich. (1966). *Araby, Islam I Arabskiy Khalifat V Rannem Srednevekov'e.* Moscow : Nauka.
14. Bol'shakov, Oleg Genrikhovich. (1989–2010). *Istoriya Khalifata (V 4 Tomakh).* Moscow : GRVL.
15. Bol'shakov, Oleg Genrikhovich. (2001). *Srednevekovyy Gorod Blizhnego Vostoka: VII – Seredina XIII Vv.: Sotsial'no-Ekonomicheskie Otnosheniya.* Moscow : Vostochnaya Literatura.
16. Bosworth, Clifford Edmund. (1971). *Musul'manskie Dinastii. Spravochnik Po Khronologii I Genealogii / Per. S Angl. P.A. Gryaznevich.* Moscow : GRVL.
17. Caetani, Leone. (1905–1922). *Annali Dell'Islam (10 Volumi).* Commercial Printing.
18. Caetani, Leone. (1913–1930). *Studi Di Storia Orientale (10 Volumi).* Rome : Institute For The Orient.
19. Hasan, Hasan Ibrahim. (2001). *Ta'rikh Al-Islam As-Siyasi Wa Ad-Dini Wa Ath-Thaqafi Wa Al-Ijtima'i (4 Vols.).* Beirut.
20. Hasanov, Abdurahim. (1992). *Makka Va Madina Tarixi.* Tashkent : Mehnat.
21. Hasanov, Abdurahim. (2001). *Qadimgi Arabiston Va Ilk Islam: I Kitob. Johiliya Asri.* Tashkent : TIU.
22. Kremer, Alfred Von. (1863). *Aegypten: Forschungen Über Land Und Volk Während Eines Zehnjährigen Aufenthalts.* Leipzig: Brockhaus.
23. Kremer, Alfred Von. (1868). *Geschichte Der Herrschenden Ideen Des Islams: Der Gottesbegriff, Die Prophetie Und Staatsidee.* Leipzig : Brockhaus.
24. Majid, 'Abd Al-Mun'im. (1982). *At-Tarikh As-Siyasi Li-Duwal Al-'Arabiyya: 'Usur Al-Jahiliyya Wa An-Nabawiyya Wa Al-Khulafa' Ar-Rashidin.* Cairo : Maktabat Al-Anjilu Al-Misriyya.
25. Majid, 'Abd Al-Mun'im. (1998). *At-Tarikh As-Siyasi Li-Duwal Al-'Arabiyya: Al-'Asr Al-Umavi.* Cairo : Maktabat Al-Anjilu Al-Misriyya.
26. Mez, Adam. (1922). *Die Renaissance Des Islams.* Heidelberg : Carl Winters Universitätsbuchhandlung.
27. Mets, Adam. (1973). *Musul'manskiy Renessans.* Moscow : GRVL.
28. Muir, William. (1883). *Annals Of The Early Caliphate: From Original Sources.* London.
29. Muir, William. (1892). *The Caliphate: Its Rise, Decline And Fall.* London.
30. Piotrovsky, Mikhail Borisovich. (1985). *Yuzhnaya Araviya V Rannee Srednevekov'e. Stanovlenie Srednevekovogo Obshchestva.* Moscow : GRVL.
31. Prozorov, Semyon Mikhaylovich. (1980). *Arabskaya Istoricheskaya Literatura V Irake, Irane I Sredney Azii (VII – Seredina X Vv.).* Moscow : GRVL.
32. Prozorov, Semyon Mikhaylovich. (1991). *Islam. Istoriograficheskie Ocherki.* Moscow : Nauka.
33. Rasulullo Sollallohu Alayhi Vasallam. (2021). *Sahih Al-Bukhari: Tarjimasi Va Sharhi / Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.* Tashkent : Hilol.
34. Shaban, M. A. (1970). *Islamic History: A New Interpretation. Vol. 1. A.D. 600–750 (A.H. 132).* Cambridge : Cambridge University Press.
35. Shaban, M. A. (1976). *The Abbasid Revolution.* Cambridge : Cambridge University Press.
36. Shaban, M. A. (1982). *Islamic History: A New Interpretation. Vol. 2. A.D. 750–1055.* Cambridge : Cambridge University Press.
37. Shihabev, Shihabiddin. (2001). *Islom Ensiklopediyasi: Muqaddas Qadamjolar Tarixi.* Tashkent : O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
38. Shihabev, Shihabiddin. (2010). *Islom Ensiklopediyasi: Qadamjolar Tarixi Va Muqaddas Makonlar.* Tashkent : O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
39. Shihabev, Shihabiddin. (2020). *Islom Ensiklopediyasi: Arabiston Tarixi.* Tashkent : O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
40. Yunusov, Yusufbek. (2004). *Arablar Va Islom Tarixi.* Tashkent : Uzbekistan.
41. Fil'shtinskiy, Ilya Mironovich. (2005). *Khalifat Pod Vlast'yu Omeyadov (661–750 Gg.).* Moscow : Sovero-Print.
42. Fil'shtinskiy, Ilya Mironovich. (2006). *Istoriya Arabov I Khalifata (750–1517 Gg.).* Moscow : AST.
43. Fil'shtinskiy, Ilya Mironovich. (2024). *Araby I Khalifat.* Moscow : Lomonosov.